



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2024- YIL YANVAR-MAY

SIRDARYO VILOYATIDA
BAJARILGAN QURILISH ISHLARI




2024- yil 1-iyun holatiga qurilish korxonalari soni, birlikda

Guliston sh.	299
Mirzaobod tumani	84
Sirdaryo tumani	80
Yangiyer sh.	65
Guliston tumani	61
Boyovut tumani	60
Sayxunobod tumani	51
Xovos tumani	38
Oqoltin tumani	37
Sardoba tumani	34
Shirin sh.	33

2024- yilning 1- iyun holatiga Sirdaryo viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 842 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 299 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 35,5 % qismi Guliston shahrida joylashgan.




Qurilish korxonalari soni, birlikda



Shuningdek, Guliston shahrida 299 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 35,5 %), Mirzaobod tumanida – 84 ta (10,0 %) qurilish korxonalari mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

2024- yilning yanvar-may oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari

hajmi mlrd. soʻmda va oʻsish surʻati



2024- yilning yanvar-may oylarida, Sirdaryo viloyatida jami 1 221,0 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2023- yilga nisbatan 100,5 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

oʻsish surʻati oʻtgan yilga nisbatan, % da, mlrd. soʻm

895,3

103,1 %

2020- y.

959,4

103,6 %

2021- y.

1 032,1

94,1 %

2022- y.

1 134,8

94,4 %

2023- y.


1 221,0

100,5 %

2024- y.

2024- yilning yanvar-may oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 80,2 % yoki 979,5 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



Ma‘lumot uchun: qurilish faoliyati bu – o‘z kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta‘mirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

2024- yilning yanvar-may oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari ulushi


mlrd. soʻmda

	2023- yil	2024- yil	Ulushi, % da
Sirdaryo viloyati	708,3	979,5	100,0
Guliston sh.	244,1	316,4	32,3
Shirin sh.	16,5	40,3	4,1
Yangiyer sh.	37,9	54,8	5,6
Boyovut	19,8	30,5	3,1
Guliston	36,7	45,5	4,7
Mirzaobod	115,7	262,9	26,8
Oqoltin	13,4	20,4	2,1
Sardoba	9,0	40,1	4,1
Sayxunobod	12,6	41,3	4,2
Sirdaryo	167,4	90,0	9,2
Xovos	35,2	37,3	3,8

2024- yilning yanvar-may oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari boʻyicha yuqori hajm, Guliston shahri (316,4 mlrd. soʻm), Mirzaobod tumani (262,9 mlrd. soʻm), Sirdaryo tumani (90,0 mlrd. soʻm) va Yangiyer shahri (54,8 mlrd. soʻm) qayd etildi.


Yillar kesimida yangi qurilish ishlari

jamiga nisbatan ulushi, % da, mlrd. soʻm



2024- yilning yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

O'sish sur'ati



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.



710,0

mlrd. so'm


Bino va inshootlar qurish



480,6

mlrd. so'm

Fuqarolik obyektlarini qurish



30,4


mlrd. so'm

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


2024- yilning yanvar-may oylarida Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 58,1 % ulushni tashkil etib, 2023- yilga nisbatan 85,0 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 39,4 % ulushni tashkil etib, 2023- yilga nisbatan 156,6 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 2,5 % ulushni va 2023- yilga nisbatan 42,1 % ni tashkil etdi.


2024- yilning yanvar-may oylarida bino va inshootlar qurilish ishlarini asosiy ko'rsatkichlari *Korxonalar turlari bo'yicha*



**Yirik qurilish
tashkilotlari**



**Kichik korxonalar
va mikrofirmalar**



Norasmiy sektor



Jamiga nisbatan, % da

Jami bino va inshootlarni qurish - 710,0 mlrd. so'm


Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 9,5 % ni tashkil etib, 2023- yilga nisbatan 3,1 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023- yilga nisbatan 1,0 % punktga kamayib 73,9 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023- yilga nisbatan 4,1 % punktga ko'payib, 26,6 % ni tashkil etdi.

Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi" ko'rsatkichi qo'llaniladi.


2024- yilning yanvar-may oylarida bino va inshootlar qurilishi hajmi mlrd. so‘mda va o‘shish sur‘ati



Ma'lumot uchun: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Guliston tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 79,7 %), Sayxunobod tumani (78,6 %) va Sardoba tumani (78,3 %) da kuzatildi.



Guliston tumani




Sayxunobod tumani




Yangiyer shahri


2024- yilning yanvar-may oylarida fuqarolik obyektlarini qurish ishlarini asosiy ko'rsatkichlari *Korxonalar turlari bo'yicha*



**Yirik qurilish
tashkilotlari**



**Kichik korxonalar
va mikrofirmalar**




Jamiga nisbatan, % da

Jami fuqarolik obyektlarini qurish - 480,6 mlrd. so'm

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 23,2 % ni tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan 0,4 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 76,8 % (0,4 % punktga ko'paydi).

Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

2024- yilning yanvar-may oylarida fuqarolik obyektlarini qurish hajmi mlrd. soʻmda va oʻsish surʼati



Ma'lumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Mirzaobod tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 74,5 %), Guliston shahri (36,3 %) va Sirdaryo tumani (31,7 %)da kuzatildi.



74,5 %

Mirzaobod tumani



36,3 %


Guliston shahri



31,7 %

Sirdaryo tumani

2024- yilning yanvar-may oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarini asosiy ko'rsatkichlari *Korxonalar turlari bo'yicha*



Jamiga nisbatan, % da


Jami ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari - 30,4 mlrd. so'm

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 1,7 % ni tashkil etdi.

Qolgan 98,3 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023- yilga nisbatan 1,7 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-may oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi mlrd. soʻmda va oʻsish surʻati



Ma'lumot uchun: Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Oqoltin tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 6,3 %), Boyovut tumani (5,9 %) va Xovos tumani (5,4 %) kuzatildi.



6,3 %

Oqoltin tumani



5,9 %

Boyovut tumani




5,4 %

Xovos tumani

2024- yilning yanvar-may oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, mlrd. so'mda




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Jami hajmga nisbatan ulushi, % da




Yirik qurilish tashkilotlari

2023- yil bilan solishtirganda –
101,6 %



Kichik korxonalar va mikrofirmalar


2023- yil bilan solishtirganda –
99,5 %




Norasmiy sektor

2023- yil bilan solishtirganda –
107,8 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-may oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari *jamiga nisbatan ulushi*



2023- y.



2024- y.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-may oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 180,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023- yilga nisbatan 101,6 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 0,1 % ga ko'payib, 14,8 % ni tashkil etdi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Jami yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan - 180,1 mlrd. so'm qurilish ishlari hajmi

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining yillar kesimidagi dinamikasi

oldingi yilga nisbatan, % da, mlrd. so'm



2020-y.

2021-y.

2022-y.


2023-y.

2024-y.

2024- yilning yanvar-may oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlar hududlar kesimida



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Sardoba tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 66,7 %), Shirin shahrida (56,0 %) va Mirzaobod tumanida (23,3 %) qayd etildi.



● mlrd. so'm

Jamiga nisbatan ulushi



Sardoba tumani




Shirin shahri




Mirzaobod tumani

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2024- yilning yanvar-may oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari *jamiga nisbatan ulushi*



2023- y.



2024- y.


2024- yilning yanvar-may oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 75,6 % to'g'ri kelib, 2023- yilga nisbatan 1,2 % punktga kamaydi.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilga nisbatan 99,5 % ni tashkil etgan holda 923,3 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Jami kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari - 923,3 mlrd. so'm hajmi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining yillar kesimidagi dinamikasi

oldingi yilga nisbatan, % da, mlrd. so'm



2020-y.

2021-y.

2022-y.


2023-y.

2024-y.

2024- yilning yanvar-may oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari *Hududlar kesimida*



Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Guliston shahriga (336,9 mlrd. so'm), Mirzaobod tumaniga (211,9 mlrd. so'm), Sirdaryo tumaniga (86,7) to'g'ri keldi.



Jamiga nisbatan ulushi

96,0 %



Yangiyer shahri

87,0 %




Sayxunobod tumani

83,0 %




Guliston shahri

2024- yilning yanvar-may oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor jamiga nisbatan ulushi



2023- y.




2024- y.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 9,6 % yoki 117,6 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2023- yilga nisbatan 107,8 % ga yetdi.

Shundan, 81,9 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2023- yilga nisbatan 118,3 %, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 0,5 mlrd. soʻmni va 8,2 %, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 35,2 mlrd. soʻmni va 103,1 % tashkil etdi.

Norasmiy sektor qurilish ishlarining yillar kesimidagi dinamikasi

oldingi yilga nisbatan, % da, mlrd. soʻm



2020-y.

2021-y.

2022-y.


2023-y.

2024-y.

2024- yilning yanvar-may oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor Hududlar kesimida



Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Guliston shahrida (61,3 mlrd. so'm), Sirdaryo tumanida (13,8 mlrd. so'm) va Boyovut tumanida (10,2 mlrd. so'm) qayd etildi.



Jamiga nisbatan ulushi



Boyovut tumani




Oqoltin tumani




Guliston shahri

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi mlrd. so'mda

2023-y.



2024-y.



■ Davlat mulkchiligi

■ Nodavlat mulkchilik

Davlat mulkchilik tashkilotlar tomonidan jami 80,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilik tashkilotlar tomonidan esa 1 140,8 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 6,6 % va 93,4 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Yangiyer shahrida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 97,7 %), Mirzaobod tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 97,1 %) va Sardoba tumanida (ushbu hududdagi umumiy qurilish ishlarining 96,4 %) qayd etildi.

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlari – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.